

5–6-SINF O‘QUVCHILARIDA OG‘ZAKI NUTQ KO‘NIKMALARINI O‘YIN TA‘LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASINING DIDAKTIK ASOSLARI

Samanova Shahlo Baxtiyarovna

UzDJTU tadqiqotchisi

Anotatsiya: *Maqolada 5–6-sinf o‘quvchilarida og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik asoslari o‘yin texnologiyasi nuqtai nazaridan tah qilinadi. Muallif o‘yinli ta‘limning kommunikativlik, faol ishtirok, motivatsiya, bosqichma-bosqichlik va refleksiya kabi tamoyillari orqali og‘zaki nutqni rivojlantirishning metodik jihatlarini ochib beradi. Tadqiqotda o‘yin texnologiyasining nafaqat til o‘rganish jarayonini qiziqarli qilishi, balki o‘quvchilarni faol muloqot sub‘ekti sifatida shakllantirishdagi roli ham tahlil qilinadi. Natijada ushbu yondashuvning nutqiy kompetensiya, o‘ziga ishonch, kommunikativ madaniyat va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *og‘zaki nutq, o‘yin texnologiyasi, didaktika, kommunikativlik, faol ishtirok, motivatsiya, bosqichma-bosqichlik, refleksiya, 5–6-sinf o‘quvchilari, nutqiy kompetensiya, muloqot.*

Ta‘limning zamonaviy modeli o‘quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki faol kommunikativ shaxs sifatida shakllantirishni ko‘zda tutadi. Ayni paytda 5–6-sinf o‘quvchilari uchun og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish til o‘rganish jarayonining eng muhim komponenti hisoblanadi. Chunki ushbu yosh davrida o‘quvchilar muloqotga kirishish, o‘z fikrini ifodalash, jamoaviy muhokamalarda ishtirok etish, savol-javoblarda faol bo‘lish kabi kompetensiyalarni mustahkamlashga ehtiyoj sezadilar. Shu nuqtai nazardan, o‘yin ta‘lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslar og‘zaki nutq rivojining tabiiy manbai sifatida xizmat qiladi.

O‘yin texnologiyasi didaktikaning an‘anaviy qoidalarini yangi pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirib, o‘quvchilar uchun qulay, qiziqarli va samarali o‘quv muhitini yaratadi. Mazkur metodika o‘quvchilarning yosh psixologiyasi, tafakkur rivoji, individual xususiyatlari, shuningdek, kommunikativ ta‘lim talablari asosida ishlab chiqiladi. Natijada o‘yinli mashg‘ulotlarda o‘quvchi nafaqat bilim oladi, balki faol nutqiy faoliyat subyektiga aylanadi.

Kommunikativ tamoyil. Kommunikativlik tamoyili metodikaning nazariy asosini tashkil etadi. O‘yin jarayonida o‘quvchilarning nutqiy faoliyati sun‘iy yoki real muloqot vaziyatlari orqali tashkil etiladi. Bu jarayonda o‘yin grammatik qoidalar yoki so‘z boyligini yod olish vositasi emas, balki muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi.

Masalan, “Rol ijrosi”, “Savol-topshiriq”, “Kim tez topadi?”, “Intervyu”, “Do‘kon”, “Telefon suhbat”, “Tanishuv aylanmasi” kabi o‘yinlar orqali o‘quvchi o‘z fikrini ifodalash, savol berish, dalillash, izohlash, tushuntirish kabi real nutqiy faoliyatga jalb qilinadi. Bunday vaziyatlar o‘quvchining nutqiy faolligini kuchaytiradi va kommunikativ kompetensiyaning bosqichma-bosqich rivojlanishiga imkon yaratadi.

Faol ishtirok tamoyili. Faol ishtirok tamoyili o'yin texnologiyasining ajralmas xususiyatidir. Har bir o'yin vazifasida o'quvchi passiv kuzatuvchi emas, balki ishtirokchi, ijodkor, yechim topuvchi rovida qatnashadi. Bu tamoyil quyidagi natijalarni beradi:

- ijtimoiy moslashuv ko'nikmalari shakllanadi;
- jamo'a bilan ishlash madaniyati rivojlanadi;
- o'z-o'zini erkin tutish, nutqiy faollik ortadi;
- muloqotda psixologik to'siqlar bartaraf etiladi.

O'yin jarayonida har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Ular xatodan qo'rqmaydi, chunki o'yin vaziyatida xatolik tabiiy hol sifatida qabul qilinadi. Bu jarayon og'zaki nutqni rivojlantirish uchun qulay psixologik muhit yaratadi.

Motivatsiya tamoyili. Motivatsiya o'yin metodikasining kuchli mexanizmlaridan biridir. O'quv jarayonining o'yin ko'rinishida tashkil etilishi o'quvchining diqqatini jalb qiladi, qiziqishini uyg'otadi, faol ishtirok etishga undaydi. Ayniqsa 5–6-sinf o'quvchilari uchun: raqobat, baho olish, g'alaba qozonish, jamoa uchun manfaatli bo'lish hissi kuchli motivatsion omillardir.

Dinamik, emotsional va mazmunli o'yinlar o'quvchilarni ingliz tiliga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi. Bunday jarayon natijasida o'quvchi bilimlarni nafaqat eslab qoladi, balki ularni nutqiy faoliyatda qo'llay boshlaydi.

Bosqichma-bosqichlik tamoyili. Og'zaki nutq ko'nikmasi birdaniga shakllanmaydi. Bu jarayon izchil rivojlanishni talab qiladi. O'yin dasturlari oddiydan murakkabga qarab tashkil etiladi:

1. Reproduktiv bosqich:

So'zlarni yodlash, talaffuz mashqlari, tayyor gaplarni takrorlash.

2. Rekonstruktiv bosqich:

Gaplarni o'zgartirish, to'ldirish, vaziyatga moslashtirish.

3. Ijodiy bosqich:

Monolog, dialog, muhokama, rolli o'yinlar.

Bunday ketma-ketlik har bir o'quvchining individual rivojlanish sur'atini hisobga oladi. O'quvchi og'zaki nutqning barcha elementlarini asta-sekin egallaydi: lug'at, grammatik struktura, intonatsiya, muloqot etikasi, nutq strategiyalari.

Refleksiya tamoyili. O'yin jarayonining yakuniy bosqichi – refleksiya. Bunda o'quvchi bajarilgan faoliyatni tahlil qiladi:

Men nimani bajardim?

Qayerda xato qildim?

Men qanday yaxshilashim mumkin?

Mening kuchli tomonlarim nimalar?

Refleksiya o'quvchida mas'uliyat, o'z-o'zini baholash, tahliliy fikrlash, o'z ustida ishlash odatini shakllantiradi. Natijada o'yinli mashg'ulotlar shunchaki ko'ngilochar jarayon bo'lib qolmaydi, balki shaxsiy va nutqiy rivojlanish vositasiga aylanadi.

O'yin texnologiyasining amaliy ahamiyati. O'yin asosidagi darslar quyidagi amaliy natijalarni beradi:

- darsda faol muloqot muhiti shakllanadi;
- nutqiy kompetensiya rivojlanadi;
- o'quvchilar o'z fikrini erkin bildiradi;
- tilni qo'llashga bo'lgan ishonch ortadi;
- kommunikativ madaniyat va jamoaviy o'ylash kuchayadi.

O'yin texnologiyasi tarbiyaviy vazifani ham bajaradi. U muloqot madaniyati, odob, sheriklik, yordam, hamjihatlik, halollik, mas'uliyat kabi ijtimoiy fazilatlarini shakllantiradi. Bu esa o'quvchining umumiy shaxsiy rivojlanishiga ta'sir etadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, 5–6-sinf o'quvchilarida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda o'yin ta'lim texnologiyasi samarali ta'lim vositasidir. Metodikaning didaktik asoslari – kommunikativlik, faol ishtirok, motivatsiya, izchillik va refleksiya tamoyillari – o'zaro uyg'unlashgan holda o'quvchi faoliyatini boshqaradi va rivojlantiradi. Ushbu metodika natijasida: o'quvchi faol, mustaqil va ijodiy shaxs sifatida shakllanadi; nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiya oshadi; til o'rganishga nisbatan ichki motivatsiya kuchayadi; XXI asr talablari darajasida kompetensiyaga ega o'quvchi yetishadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Samanova Sh.B. Ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalaridan foydalanishning psixologik-pedagogik jihatlari. – T.: Fan, 2021.
2. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva: Pedagogika, 1999.
3. Elkonin D.B. Bolalar psixologiyasi. – M.: Akademiya, 2008.
4. Zimnaya I.A. Pedagogik psixologiya. – M.: Logos, 2002.
5. Passov E.I. Kommunikativ til o'qitish metodikasining asoslari. – M.: Rus tili, 1989.
6. Galskova N.D. Zamonaviy chet tilini o'qitish metodikasi. – M.: ARKTI, 2003.
7. Azizkho'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006.
8. To'raqulov A. O'yinlar orqali til o'rgatish. – T.: O'qituvchi, 2015.
9. Jonassen D. O'quv muhitini loyihalash: konstruktivizmni qo'llash. – N.Y.: Routledge, 1999.
10. Brown H.D. Til o'qitish va o'rganish tamoyillari. – Pearson Education, 2007.